



ETHICAL AND AESTHETIC ASPECTS OF ISLAMIC ARCHITECTURE IN THE CENTRAL ASIAN REGION

Jamol Norov

lecturer

Shahrisabz State Pedagogical Institute

Shahrisabz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, Islamic architecture, Moral values, Aesthetic decorations, Geometric patterns, Arabic calligraphy, Tilework and mosaics, Domes and minarets, Samarkand, Bukhara, Khiva, Spiritual elevation, Madrasas, Mosques, Harmony with nature, Cultural heritage, Historical monuments, Centers of knowledge and enlightenment, Colorfulness, Islamic art

Received: 10.12.24

Accepted: 12.12.24

Published: 14.12.24

Abstract: This article explores the ethical and aesthetic aspects of Islamic architecture in the Central Asian region. Islamic architectural monuments are analyzed not only as religious centers but also as representations of moral values and cultural heritage. Ethical aspects are reflected in the architectural solutions of mosques, madrasas, and mausoleums, emphasizing modesty, purity, and the encouragement of spiritual elevation. Aesthetic aspects are expressed through intricate tilework and mosaics, geometric patterns, Arabic calligraphy, vibrant color schemes, and harmony with nature.

The article highlights the uniqueness of Islamic architecture in this region and its role in the spiritual and cultural development of society. Using examples from historic cities such as Bukhara, Samarkand, and Khiva, the study demonstrates the significance of ethical and aesthetic values in religious and social life. This research emphasizes the importance of understanding and appreciating the spiritual legacy passed down to future generations through the art of architecture.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA ISLOM ARXITEKTURASINING AXLOQIY VA ESTETIK JIHATLARI

Jamol Norov

o'qituvchi

Shahrisabz davlat pedagogika institute

Shahrisabz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Markaziy Osiyo, Islom arxitekturasini, Axloqiy qadriyatlar, Estetik bezaklar, Geometrik naqshlar, Arabiy yozuvlar, Koshin va mozaika, Gumbaz va minoralar, Samarqand, Buxoro, Xiva, Ruhiiy yuksalish, Madrasalar, Masjidlar, Tabiat bilan uygʻunlik, Madaniy meros, Tarixiy obidalar, Ilm va maʼrifat markazlari, Rang-baranglik, Islomiy sanʼat.

Annotatsiya: Mazkur maqola Markaziy Osiyo mintaqasidagi islom arxitekturasining axloqiy va estetik jihatlarini oʻrganishga bagʻishlangan. Islomiy meʼmoriy obidalar nafaqat diniy markazlar, balki axloqiy qadriyatlar va madaniy merosning ifodasi sifatida talqin etiladi. Axloqiy jihatlar masjidlar, madrasalar va maqbaralardagi kamtarlik, poklik va ruhiy yuksalishga undovchi meʼmoriy yechimlarda namoyon boʻladi. Estetik jihatlar esa koshin va mozaikalar, geometrik naqshlar, arabiy yozuvlar, shuningdek, rang-baranglik va tabiat bilan uygʻunlikda oʻz ifodasini topadi.

Maqola islom arxitekturasining ushbu mintaqadagi oʻziga xosligini yoritib, uning jamiyatni maʼnaviy va madaniy jihatdan rivojlantirishdagi rolini tahlil qiladi. Buxoro, Samarqand va Xiva kabi tarixiy shaharlarda joylashgan meʼmoriy obidalar asosida axloqiy va estetik qadriyatlarning diniy hamda ijtimoiy hayotdagi ahamiyati koʻrsatilgan. Ushbu tadqiqot arxitektura sanʼati orqali oʻtmishdan kelajak avlodga yetkazilgan maʼnaviy merosni anglash va qadrlashga qaratilgan.

ЭТИЧЕСКИЕ И ЭСТЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСЛАМСКОЙ АРХИТЕКТУРЫ В ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОМ РЕГИОНЕ

Джамал Норов

преподаватель

Шахрисабзский государственный педагогический институт

Шахрисабз, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, Исламская архитектура, Моральные ценности, Эстетические украшения, Геометрические узоры, Арабские надписи, Плитка и мозаика, Купола и башни, Самарканд, Бухара, Хива, Духовный подъем, Медресе, Мечети, Гармония с природой, Культурное наследие, Исторические памятники, Центры науки и просвещения, разнообразия, исламского искусства.

Аннотация: В статье рассматриваются этические и эстетические аспекты исламской архитектуры в Центральной Азии. Исламские архитектурные памятники анализируются не только как религиозные центры, но и как выражение моральных ценностей и культурного наследия. Этические аспекты проявляются в архитектурных решениях мечетей, медресе и мавзолеев, подчеркивающих скромность, чистоту и стремление к духовному возвышению. Эстетические аспекты находят отражение в изысканной облицовке плиткой и мозаикой, геометрических узорах,

арабской каллиграфии, ярких цветовых палитрах и гармонии с природой.

В статье подчеркивается уникальность исламской архитектуры данного региона и её роль в духовном и культурном развитии общества. На примере таких исторических городов, как Бухара, Самарканд и Хива, демонстрируется значение этических и эстетических ценностей в религиозной и социальной жизни. Данное исследование акцентирует важность понимания и сохранения духовного наследия, передаваемого будущим поколениям через искусство архитектуры.

KIRISH

“Markaziy Osiyo mintaqasida islom arxitekturasining axloqiy va estetik jihatlari” mavzusi bugungi kunda madaniy merosni asrash, uni zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashtirish va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Islom arxitekturasida mintaqaviy madaniyatning uzviy qismi sifatida nafaqat diniy, balki axloqiy-estetik qadriyatlarni ham ifodalaydi. Ushbu mavzuni o‘rganish quyidagi sabablar tufayli dolzarbdir:

Markaziy Osiyo islom arxitektura obidalari, masjidlar, madrasalar va maqbaralar nafaqat tarixiy me‘morchilik yodgorliklari, balki xalqning axloqiy va estetik qarashlarini ham aks ettiradi. Ularni o‘rganish madaniy merosni asrash va ulardan ilmiy-amaliy foydalanishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashtirish sharoitida mintaqaning islomiy me‘moriy obidalari xalqaro miqyosda katta qiziqish uyg‘otmoqda. Ushbu tadqiqotlar O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining xalqaro madaniy muloqotdagi ishtirokini kuchaytiradi.

Islom arxitekturasida orqali axloqiy-estetik qarashlarni targ‘ib qilish, xalqning ma‘naviy ongini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, yosh avlodni milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda bu mavzuning ahamiyati katta.

Islom arxitekturasida naqshlari va tamoyillari zamonaviy arxitektura va dizayn loyihalariga innovatsion yondashuvlarni taklif etadi. Bu esa madaniy o‘ziga xoslikni saqlagan holda zamonaviy rivojlanishni ta‘minlaydi.

Markaziy Osiyo hududi islom arxitekturasining rivojlanishida muhim o‘rinni egallagan. Islom dinining kirib kelishi bilan bu mintaqada diniy va dunyoviy arxitektura uslublari boyitilgan. VII–VIII asrlarda arablar tomonidan islom dini yoyilishi bilan masjidlar, madrasalar, maqbaralar va boshqa inshootlarning qurilishi boshlandi.

USULLAR

Dastlabki davrlarda me'morchilik asosan mahalliy an'analar va yangi islomiy tamoyillar uyg'unligida rivojlandi. Mahalliy me'morlar arab me'morchiligidan g'oyaviy ilhom olgan holda, o'ziga xos mintaqaviy uslublarni yaratishga muvaffaq bo'lishgan. Buni biz Samarqanddagi Xazrati Xizr masjidi, Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi, Kalon masjidi va Minorai Kalon, Keshdagi Abul Xasan Ishqiy masjidi, Arslonxon xonaqohi, Termizdagi Sulton Saodat majmuasi, Jarqo'rg'ondagi minoralari misolida ko'rishimiz mumkin.

Asosiy xususiyatlar:

- Mahalliy an'analar va islom arxitekturasining sintezi.
- Tosh va g'ishtdan foydalangan holda murakkab naqsh va geometrik shakllar.
- Katta masjidlarning ichki va tashqi bezaklariga axloqiy-estetik tamoyillarning singdirilishi.

Axloqiy-estetik tamoyillarning asosi

Islom arxitekturasini Qur'on va hadislarning axloqiy ko'rsatmalariga asoslangan bo'lib, bu ko'rsatmalar obidalarining me'moriy uslubi va bezaklarida namoyon bo'ladi.

Tavhid (yakka Xudoga e'tiqod): Me'moriy tuzilishidagi markaziy simmetriya va naqshlarda yagona Xudoni ulug'lash g'oyasi aks etadi.

NATIJALAR

Temuriylar davrida barpo etilgan aksariyat majmualarda islom me'morchiligining ramziy obrazlaridan samarali foydalanilgan. Masalan, **bino gumbazi** – **الجمال**, ya'ni Allohning o'ta go'zalligini ifodalasa; **minora yoki mezana** – **الجلال**, ya'ni Allohning buyukligini, **gumbaz ostidagi epitafiya esa** – **الصافات**, ya'ni Allohning ism-sifatlarini ifodalagan.

Soddalik va xayrixohlik: Masjid va madrasalarning tashqi ko'rinishi oddiy bo'lib, ichki bezaklar murakkab naqshlar bilan to'ldirilgan. Bunda usta-me'morlar bino qilinayotgan inshootga me'morchilikning eng nozik jabhalarigacha e'tiborlarini qaratdilar. Masjid, madrasa va maqbaralarning gumbazlarini qo'shgumbaz qilib qurish an'anasi paydo bo'ldi. Bu an'ananing o'ziga xos xususiyati shundaki, *1-jihati masjid ichida tovush tarqalishi (akustika) bir maromda bo'ladi; 2-jihati yozda salqin va qishda nisbatan iliq (termos)-mu'tadil havoni o'zida saqlaydi.* Jome' masjidi bino qilinayotganda gumbazi baland qilinishi, uning gumbazi ustiga qo'yiladigan yangi chiqqan oy va yulduz – musulmonlar yuzlarini qaratib, namoz o'qiydigan qibla tomonni ko'rsatib turgan. Yoki jome' masjidlarining eshik – darvozalari mehrob (*qibla*) tomondan qo'yilmagan. Bu kabi tadbirlar, ya'ni masjidning gumbazi baland qilib qurilishi: agar bir oilada janjal yoki to'polon bo'layotgan bo'lsa, ulardan biri masjid gumbazini ko'rganda Allohni eslagan va jahldan tushib, ibodatni yodga olgan. Bu insonning ichki dunyosiga ta'sir etib, uning ichki dunyosini go'zalligiga ishora qiladi.

Tasavvuf ta'siri: Tasavvuf falsafasi Markaziy Osiyodagi ko'plab obidalarining estetik qarashlariga ta'sir ko'rsatgan. Xususan, naqshbandiylik tamoyillari Samarqand va Buxorodagi maqbaralar va masjidlarda yaqqol seziladi.

MUHOKAMA

Markaziy Osiyo hududida islomgacha bo'lgan davrda insonlar yoki hayvonlar tasviridan saroylar va zodagonlarning uyini bezashda foydalanilgan. Buni Termizshohlar hamda Afrosiyob saroylari devorida chizilgan suratlarda ko'rish mumkin. Islom dini tarqalishi bilan masjidlarning bezaklarida jonli narsa tasvirini chizish qat'iyan ta'qiqlangan bo'lib, bu axloq qoidalariga zid hisoblangan. Faqat istisno tariqasida jonli tasvir temuriylar davrida Shahrisabzdagi Oqsaroy majmuasida va xonliklar davrida Samarqanddagi Sherdor madrasasi (1619-1636 yillar) peshtoqida sher va kiyik, Buxorodagi Nodir Devon Begi madrasasi (1622-1623 yillar) peshtoqidagi *afsonaviy xumo qushi (Semurg')* va *kiyik* tasvirlari me'moriy obyektlarida kuzatilgan.

Oqsaroy (1380-1404 yillar) peshtoqidagi sher tasviri haqida Kastiliya va Leon qirolligi (ispan) elchisi Rui Gonzales de Klavixoning quyidagicha fikr bildirgan: "...Hovli sahnining kengligi uch yuz qadam keladi. Mazkur hovlidan bag'ri keng uyga kiriladi. Uyning juda baland va keng ochiladigan eshigi zarhal va lojuvard buyoqlar hamda chiroyli koshinlar bilan bezatilgan. Eshikning tepasidagi devorda o'rta qismida quyosh nuri ko'lamida aks ettirilgan sher tasviri bor. Eshikning chetlarida ham xuddi shunday suratlar chizilgan..."

Samarqand Registoni – Markaziy Osiyoda islom arxitekturasining eng yorqin namunasi. Undagi uchta madrasa – Ulug'bek madrasasi, Sherdor madrasasi va Tillaqori madrasasi islom axloqiy-estetik tamoyillarini ifodalaydi. Ularning naqsh va geometrik bezaklarida islomdagi xotirjamlik va uyg'unlik tushunchalari aks etgan.

Buxorodagi Ismoil Somoniy maqbarasi – o'rta asrlardagi eng qadimiy islomiy inshootlardan biri bo'lib, undagi bezaklar Qur'ondagi soflik va ixlos tushunchalarini tasvirlashda ishlatilgan. Maqbara qurilishida ishlatilgan murakkab g'isht naqshlari mahalliy va islomiy san'at uyg'unligining yorqin namunasi hisoblanadi.

Xiva va Toshkent obidalari: Xivadagi Ichan-Qal'a majmuasi va Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi mintaqaning axloqiy-estetik me'yorlari va milliy san'at an'alarini o'zida mujassam etgan.

Markaziy Osiyo arxitekturasida bezaklar va naqshlar axloqiy-estetik mazmunni yetkazishda muhim rol o'ynaydi:

Arab grafikasidagi yozuvlar: Qur'ondan olingan oyatlar va hadislar yozilgan. Bu insonni yaxshilikka undash va axloqiy fazilatlarni oshirishga qaratilgan.

Geometrik naqshlar: Xudoning mutlaq va mukammallik tushunchasini aks ettiradi.
O'simlik naqshlari: Islomiy san'atda jannatni ramziy tasvirlashda ishlatiladi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo islom arxitekturasini madaniy meros sifatida katta ahamiyatga ega. Axloqiy-estetik jihatlar zamonaviy arxitektura va san'atda ham o'z aksini topmoqda. Xususan, yangi qurilayotgan masjidlar va madrasalarda o'tmishdagi tamoyillar saqlanib qolgan holda, zamonaviy uslublar bilan uyg'unlashtirilmoqda.

XULOSA

Markaziy Osiyodagi islom arxitekturasini axloqiy-estetik tamoyillarni nafaqat qurilish me'morchiligi, balki milliy va diniy qadriyatlar orqali ham namoyon qiladi. Ushbu arxitektura mintaqaning madaniy va diniy merosini o'rganish uchun muhim manba bo'lib, global darajada islom san'atining yorqin namunasi sifatida qadrlanadi. Bu obidalar xalqni axloqiy poklik va fazilatlarga undashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu mavzuni tadqiq etish mintaqaning madaniy va diniy merosini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ushbu mavzu axloqiy va estetik qadriyatlarning tarixiy ildizlarini o'rganish orqali bugungi jamiyat uchun yangi ma'nolar kashf etishga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo arxitekturasini nafaqat tarixiy obidalar majmuasi, balki xalqning ma'naviy va estetik tushunchalari ifodasi sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu obidalarni tadqiq qilish orqali:

1. Mahalliy va xalqaro ilmiy salohiyatni oshirish,
2. Madaniy merosni targ'ib qilish,
3. Milliy o'zlikni rivojlantirish,
4. Jamiyatda axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash kabi dolzarb masalalarni hal etish imkoniyati yaratiladi.

Shunday qilib, mavzuni chuqur o'rganish milliy va mintaqaviy o'zlikni yanada teran anglashga, madaniy merosni asrab-avaylashga va global miqyosda tanitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, 2022.
2. "O'zbekiston obidalaridagi bitiklar – Qashqadaryo", Toshkent, "Uzbekistan today", 2016.
3. Hillenbrand, R. Islamic Architecture: Form, Function, and Meaning. Columbia University Press, 1994.
4. Blair, S., Bloom, J. The Art and Architecture of Islam 1250–1800. Yale University Press, 1995.
5. Allworth, E. Central Asia: A Historical Overview. Duke University Press, 1994.

6. O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi. Markaziy Osiyo arxitektura obidalari. Toshkent, 2020.
7. Burkhanov, R. Islom madaniyati va san’ati. Toshkent, 2018.
8. Nasr, S. H. Islamic Science and the Making of the European Renaissance. MIT Press, 2007.
9. Klavixov, R.G., “Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi”, Toshkent, “O‘zbekiston”, 2010.
10. Boltaev, A. Samarqandning tarixiy obidalari. Toshkent, 2021.
11. UNESCO. World Heritage in Central Asia. UNESCO Publications, 2010.
12. Temuriylar tarixi davlat muzeyi nashri. Xiva va uning arxitektura obidalari. Toshkent, 2019.
13. Ettinghausen, R., Grabar, O. The Art and Architecture of Islam 650–1250. Yale University Press, 1987.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Madaniy merosni asrash va rivojlantirish chora-tadbirlari. Toshkent, 2021.
15. UNESCO. Islamic Architecture of the Region. UNESCO Publications, 2005.